



YOSHLAR ORASIDA GIYOVANDLIKNI TARQALISHINING KRIMINOLOGIK TAHLILI

**Raxmatov Umrzoq Nusratovich Jamoat xavfsizligi
universiteti magistratura tinglovchisi**

Annotatsiy. Maqolada yoshlar o'rtasida giyohvandlikni oldini olishning kriminologik tahlili milliy va xorijiy qonunchilik, huquqshunos olimlarning nazariy fikrlari, sud-tergov amaliyoti tahlili asosida o'r ganilgan. Tadqiqot natijalari asosida yoshlar o'rtasida giyovandlikni oldini olish va javobgarlikni takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch iboralar: yoshlar, voyaga yetmagan, bola, giyovandlik, g'ayriijtimoiy, g'ayrihuquqiy, xatti-harakat, jalb qilish, xulq-atvor, huquqbuzarlik, jinoyat, oldini olish.

KRIMINOLOGICHESKIY ANALIZ RASPROSTRANENIYA NARKOMANII SREDI MOLODEJI

Annotasiy. B state issleduetysa kriminolicheskiy analiz profilaktiki narkomanii sredi molodeji na osnove nasionalnoro i zarubejnogo zakonodatelstva, teoreticheskix mneniy uchenix-yuristov, analiza sudebno-meditsinskoy praktiki. Na osnove rezultatov issledovaniya bili razrabitani predlojeniya i rekomendasii po profilaktike kokainovoy zabisimosti sredi molodeji i povisheniyu otvetstvennosti.

Bazovie frazi: molodej, nesobershennoletniy, rebenok, rod давка, antisotsialniy, antisotsialnoe povedenie, pribekatelnost, povedenie, prabonarushenie, prestupnost, profilaktika.

CRIMINOLOGICAL ANALYSIS OF THE SPREAD OF ADDICTION AMONG YOUNG PEOPLE

Annotation. The article explores the criminological analysis of drug prevention among young people based on national and foreign legislation, theoretical opinions of legal scholars, analysis of forensic practice. Based on the results of the study, proposals and recommendations have been developed on the Prevention of cocaine addiction among young people and the improvement of responsibility.

Base phrases: youth, minor, child, giveaway, anti-social, anti-social, behavior, attraction, behavior, offense, crime, prevention.

Mustaqillik yillarida yurtimizda hukm surayotgan tinchlik va osoyishtalik, millatlararo hamjihatlik tufayli tub islohotlarni amalga oshirilishiga keng sharoitlar yaratilmogda. Ayniqsa, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash, sog'lom oilani shakllantirish, barkamol avlodni voyaga yetkazish va tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

Yurtboshimiz tashabussi blan diyorimizda juda ko'plab tibbiyot hamda ta'lim sohasida yangiliklar bo'lmoqda. Birgina 2021–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategyasi"da yoshlarga qaratilgan e'tibor juda katta [1].



Yoshlarni vaqtdan unumli foydalanishga, kelajakda foydali sohalarga yo'nalishni nazarda tutgan holda, respublikamiz Pirezdenti yoshlari harakatiga juda katta e'tibor qaratmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydag'i "Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ilova qilingan O'zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiyasida "jinoyat qonunchiligining, ayniqsa, ijtimoiy xavfi katta bo'limgan va uncha og'ir bo'limgan jinoyatlarni bиринчи marotaba sodir etgan, shuningdek, aholining ijtimoiy zaif qatlamlari – voyaga yetmaganlar, keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, homilador ayollar va qaramog'ida voyaga yetmagan bolalari bo'lgan yolg'iz shaxslarga nisbatan yanada insonparvarligini ta'minlash, jinoyat protsessiga jalb etilgan voyaga yetmaganlarning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashga qaratilgan jinoiy-huquqiy normalarni takomillashtirish [2]" kabi ustuvor vazifalar belgilab berilganini alohida e'tirof etadigan bo'lsak, voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash hamda ularni qonunchilik nuqtai nazaridan mustahkamlab qo'yish muhim hisoblanadi.

Bizga qaratilgan imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, faqatgina o'qib izlanishimiz hamda, bo'sh vaqtimizdan unumli foydalanishimiz talab etiladi xolos. "Guruch kurmaksiz bo'lmaydi" deganlaridek, bizga yaratilayotgan imkoniyatlarni qadriga yetmaydigan, qolaversa, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanmagan yoshlari orasida bugungi kunda tarqalgan giyohvandlik - ajablanarli holatdan biridir.

Giyohvandlikka o'rgangan insonning esa kelajakda uning ta'siridan qutilishi amri mahol. Chunki, bu o'rgimchak to'rini aylantirib to'qib borayotgan manfur guruhrar yo'q emas! Ajablanarli tomoni shuki, kimlargadir giyohvandlik - "biznes"ga aylanib qolmoqda. Giyohvandlikka o'rgangan insonlar borki, o'rgimchak to'ridek atrofni o'rab oladigon, ularning bu iskanjani tark etmasligini istaydigan inson qiyofasidagi manqurtlar yanada ko'p. Shuning uchun biz astoydil o'qishimiz, bizga qaratilgan imkoniyatlarni qadriga yetishimiz lozim. Shuni unutmaylikki, bu imkoniyatlar O'zbekiston yoshlarining porloq kelajagi uchun xizmat qiladi.



Giyohvandlik turlanishlarida xam o'zgarishlar xam mavjud va uning zamonaviy ko'rinishlari xududiy jihatlarga ega bo'ladi. Xususan, aksariyat (9,8 foiz) birvaqtini o'zida bir necha narkotikni qabul qilish (KSN) uchraydi va turli yoshlarda ushbu ko'rinish 9,0 foizdan (20-24 yoshda) 16,7 foizgacha (45 yoshdan oshganlarda) yetib aniqlanadi ($r < 0,01$). Giyohvandlar populyatsiyasida heroin qabul qilish xolatini yuqoriligi mavjud, tarqalish umumiyligi chastotasi 74,1 foizni tashkil qiladi va mu'ayan yosh diapazonlarida turlichaliklari bilan qayd etiladi: 45 yoshdan oshgan giyohvandlarda – 66,7 foiz, 40-44 da – 71,9 foiz, 35-39 da – 67,9 foiz, 30-34 da – 73,8 foiz, 25-30 da – 74,7 foiz, 20-24 da – 79,5 foiz va 20 yoshgacha bo'lganlarda – 83,3 foiz [3, 129].

Ta'kidlash joizki, ushbu ishlarni ro'yobga chiqarish osonlikcha amalga oshmaydi. Masalan, aholi ayniqsa, yoshlar hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan illatlardan biri bo'lgan giyohvandlik nafaqat bir mamlakat, balki butun-butun mintaqalar taqdiriga chang soluvchi dahshatli kuchga aylanib borayotganligi sir emas. Ushbu baloga qarshi doimo kurashish talab etiladi. Internet ma'lumotlarida keltirilishicha, giyohvand moddalar iste'moliga qarshi kurashishda "uchinchgi sektor"ning ham samarali faoliyati ko'zga tashlanmoqda. Xususan, Shvetsiyada faoliyat yuritib kelayotgan "Giyohvandlikdan holi jamiyat", "Yevropa shaharlari narkotiklarga qarshi" (YESAD) kabi xalqaro tashkilotlar so'zimizga misol bo'ladi. Ayni paytda mazkur tashkilotlarning loyihalari kengayib, Osiyo mamlakatlari bilan ham hamkorlik aloqalari o'rnatilmoqda. So'nggi yillarda mazkur tashkilotlar Yevropada mintaqaviy strukturalar hamjihatligini rivojlantirishda iqtisodiy integratsiyaga o'z hissasini qo'shib, ayniqsa mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni ta'minlash masalalari yuzasidan olib borilayotgan ishlarni qo'llab-quvvatlashda faol ishtirok etmoqda. Bunda Yevroittifoq davlatlari bilan hamjihatlikda ko'plab loyihalarni hayotga tadbiq etmoqda. YESAD ma'lumotlariga ko'ra 1995-2010 yillarda Yevroittifoq bo'ylab 125 tonnadan ko'p heroin moddasi musodara qilingan. Mazkur og'uning 85 foizi aynan afg'on afyuni ekanligi bu boradagi ishlarni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Shu maqsadda "YESAD" hamda boshqa xalqaro tashkilotlar vakillarining bildirishicha og'uga qarshi kurashda Osiyo mamlakatlari bilan kengroq hamkorlik qilish lozim. "YESAD" vakillarining ta'kidlashicha, so'nggi o'n yillikda giyohvandlikka asosiy ijtimoiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda.



Xalqaro ekspertlarning fikriga ko‘ra, narkotiklardan holi jamiyat sifatida ming nafar aholiga bitta giyohvand to‘g‘ri kelishiga aytildi. Biroq, dunyoning aksar mamlakatlarida bu raqamlarni kuzatish qiyin. Ayrim davlatlarda yuz nafar, ellik nafar kishiga bir nafar giyohvandlikka ruju qo‘ygan uchramoqda. Tadqiqotlardan ma’lumki, aynan bekor, ishsiz yurgan yoshlar narkotik moddalarga ruju qo‘ymoqda. Biz ham narkotiklarga qarshi kurashda ushbu jihatlarga alohida e’tibor qaratishimiz zarur.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-son Farmoni \\\ (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son; 10.02.2023-y., 06/23/21/0085-son)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 maydagi “Jinoyat va jinoyat protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga ilova qilingan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligini takomillashtirish konsepsiysi \\\ Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2018 y., 07/18/3723/1225-son, 01.10.2018 y., 06/18/5547/1975-son.
2. Конститусия ва донун устуворлиги – ҳуқуций демократик давлат ва фуқаролик жамиятининг энг муҳим мезонидир. / Президент Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Конститусияси қабул қилинганинг 27 йиллигига баг‘ишланган тантанали маросимдаги маърузаси –
<https://president.uz/uz/lists/view/3119>
3. Усмоналиев М. Жиноят хукуқи. Умумий қисм. Тошкент: “Янги аср авлоди”. 2010. – 169-170 б.